FARG’ONA VILOYATI FURQAT TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 29 - mart 92-11-164-Q/22 Furqat tuman hokimligi

Tuman hokimining 2022 yil 26 martdagi “Z.S.Alixadjaeva to‘g‘risida”gi 86-11-164-Q/22-sonli va shu kungi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish haqida”gi 88-11-164-Q/22-sonli qarorlarini bekor qilish haqida

Tuman hokimining hokimining 2022 yil 26 martdagi “Z.S.Alixadjaeva to‘g‘risida”gi 89-11-164-Q/22-sonli qarori bilan hokim o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi etib tayinlangan.

Lekin tuman hokimining shu kungi 86-11-164-Q/22-sonli qarori bilan Z.S.Alixadjaeva 6 oylik sinov muddati bilan hokim o‘rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi etib tayinlanganligi haqidagi hujjat ham elektr energiyasidagi uzilishlardagi e’tiborsizlik tufayli “E-qaror” elektron tizimiga 2 martadan kiritib yuborilib, xatolikka yo‘l qo‘yilgan.

Shu singari, tuman hokimining 2022 yil 26 martdagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish haqida”gi qarori loyixasi tuman hokimligi bosh yuriskonsulti tomonidan o‘rganilib, qaror loyihasi tuman Adliya bo‘limi orqali huquqiy ekspertizadan o‘tkazish haqida ma’lumotnoma tuzilgan bo‘lsada, “E-Qaror” elektron tizimiga kiritishda “imzo uchun” versiyasiga kiritib yuborilishi oqibatida loyiha tuman Adliya bo‘limiga yetib bormasdan, 88-11-164-Q/22-sonli qaror tarzida imzolanib yuborilgan.

Bu boradagi xatoliklarni bartaraf etish maqsadida, shuningdek, tuman adliya bo‘limining 26.03.2022 yildagi taqdimnomasini ko‘rib chiqib,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tuman hokimining 2022 yil 26 martdagi “Z.S.Alixadjaeva to‘g‘risida”gi 86-11-164-Q/22-sonli va shu kungi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish haqida”gi 88-11-164-Q/22-sonli qarorlari bekor qilinsin.

2. Kelgusida “Ye-qaror” elektron tizimi orqali hujjatlar qabul qilishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik borasida tuman hokimligi barcha xodimlari ogohlantirilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosi ustidan nazorat tuman hokimligi tashkiliy kadrlar guruhi rahbari A.Eshmatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Ж.Жуманов**